



YAPON VA O'ZBEK TILLARINING ILMIY IZLANISHLIK DARAJASI:
MUQOYASA VA MUAMMOLAR

Amirova Yulduz Qodirjon qizi

Ilmiy darajasi: magistr

Unvoni: yo'q

Lavozimi: o'qituvchi

Ish joyi: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi yapon va o'zbek tillarining izlanishlik darajasi taqqoslab tahlil qilinadi. Yapon tili bo'yicha chuqur, mustaqil ilmiy tadqiqotlar va mukammal darsliklar mavjudligi yoritiladi. O'zbek tilida esa izlanishlar yetarli emasligi va bu holat amaliyotda qanday muammolar tug'dirishi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Yapon tili, o'zbek tili, tilshunoslik, izlanish darajasi, metodika, darsliklar, rus tili ta'siri, grammatik o'ziga xoslik

Kirish

Bugungi global tillar raqobatida har bir tilning xalqaro maydondagi mavqei, uni o'rganishga oid imkoniyatlar va ilmiy-tilshunoslik izlanishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Yapon va o'zbek tillari ikki turli til oilasiga mansub bo'lsa-da, ularning izlanishlik darajasi o'rtasidagi farq ancha keskin. Ushbu tezisdagi shu farqni ochib berish maqsad qilingan.

2. Yapon tilining izlanishlik darajasi

Yapon tili tilshunoslar e'tiborida uzoq yillar davomida bo'lgan bo'lib, uni o'rganishda yondashuvlar juda aniq va mustaqil shakllangan. Ya'ni, yapon tilining o'ziga xos xususiyatlari boshqa tillar (masalan, ingliz yoki xitoy) grammatikasiga moslashtirish orqali emas, balki **ichki qonuniyatlarini chuqur o'rganish** orqali yoritilgan. Bu esa yapon tilshunosligining mustahkam fundamental asoslarini yaratdi.

Misol uchun, fonetika, morfologiya, pragmatika, sintaksis, hatto nutq madaniyati darajasida ham chuqur izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, yapon tilining talaffuz tizimi, **keigo** (hurmatli nutq), **intonatsiya tizimi**, va **yozuv shakllari** kabi murakkab sohalar alohida tadqiqot obyektiga aylangan.

Bu ilmiy yondashuv yapon tilini o'rganuvchilarga ham katta foyda keltirdi. Chunki ushbu izlanishlar asosida "Minna no Nihongo", "Torai", "Shinkanzen Masuta" kabi **yapon tilini o'rganishga mo'ljallangan mukammal, bosqichma-bosqich darsliklar** yaratilgan. Bu darsliklarda grammatika, leksika, madaniyat, nutq



namunalarining uyg'unligi aniq metodikaga asoslangan bo'lib, o'rganuvchiga mustahkam bilim beradi. Bu – tilni o'rganish jarayonini osonlashtiruvchi, **amaliy qo'llanmaga aylangan ilmiy natijadir.**

3. O'zbek tilining izlanishlik darajasi

O'zbek tilshunosligi esa ko'p jihatdan sovet davri ta'sirida shakllangan bo'lib, **rus tili grammatik modelini o'zlashtirishga urinishlar** kuzatilgan. Bu esa o'zbek tilining o'ziga xosliklariga ziddiyat keltirib chiqargan. Masalan, rus tilida mavjud "urg'u" tushunchasi o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olingan, holbuki o'zbek tilida bu tushuncha to'laqonli ishlamaydi. Aslida o'zbek tilida "pitch accent" (ohang urg'usi) tizimi mavjud bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, **so'z tartibi, fe'l yasalishi, otlarning egalik qo'shimchalari, fe'lining zamon shakllari** kabi ko'plab mavzularda chuqur izlanishlar yetarli emas. Bu izlanishlar yetishmasligi esa o'zbek tilini o'rganmoqchi bo'lganlar uchun amaliy muammolarni keltirib chiqaradi.

Eng ko'zga ko'ringan muammo bu — **zamonaviy va xalqaro darajadagi o'quv qo'llanmalarining yo'qligidir.** Yapon tilidagi "Minna no Nihongo"ga o'xshagan tizimli va metodik darsliklar o'zbek tilida mavjud emas. Hattoki, O'zbekistonda yashaydigan, ona tili rus bo'lgan odamlar ham **o'zbek tilini o'rganish uchun samarali, tushunarli darslik topa olmaslikdan shikoyat qilishadi.**

Bu esa o'zbek tilining xalqaro darajada o'rganilishi, ommalashishi va o'z ichki tizimining tushunarli bo'lishiga jiddiy to'siqdir. O'zbek tili boy va imkoniyatlarga ega bo'lgan til bo'lishiga qaramay, izlanishlarning yetishmasligi uni o'z salohiyatidan to'liq foydalana olmaydigan holga olib kelmoqda.

4. Xulosa: Yapon tilining izlanishlik darajasi uning o'ziga xosligiga hurmat bilan yondashilgan va shu asosda mustaqil, chuqur ilmiy yo'nalishda rivojlangan. Bu yondashuv tilni o'rgatuvchi amaliy qo'llanmalar, aniq tizimlar va metodik darsliklar paydo bo'lishiga olib kelgan. Aksincha, o'zbek tilining tilshunoslikdagi izlanishlari ko'proq tashqi shablonlar, ayniqsa rus tili ta'siri ostida olib borilgani sababli, bugungi kunda o'zbek tilini o'rganishga oid kuchli va zamonaviy asoslangan darsliklar yetarli emas. Shuning uchun o'zbek tilining mustaqil yo'nalishda chuqur ilmiy izlanishlarga asoslangan holda qayta yondan ko'rib chiqilishi zarur va kechiktirib bo'lmaydigan masaladir.